

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

Jo'rayeva Munojat Abdubannopovna

Erkin Vohidov uy-muzeyi mudirasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1479995>

Annotatsiya. Erkin Vohidovning har bir she'ridera davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas psixologiyasi, millatning monumental qiyofasi to'la aks etadi. Shoир she'rlerida ilgari surayotgan g'oyani o'quvchiga majbur qilib tushuntirmaydi, satrlar zimmasiga og'ir yuk ortmaydi. Iloji boricha, oddiygina so'zlar va lirk qahramonning xatti-harakati orqali yengilgina taqdim etadi. Mazkur maqolada shoирning she'rlerida tilning tasviriy vositalarning ishlatalishi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: publitsist, tasviriy vositalar, O'zbekiston Qahramoni, tinglovchi, millat ruhi, shoир qalbi, obrazlar.

TRADITION AND INDIVIDUALITY IN THE POEMS OF ERKIN VOKHIDOV

Abstract. Each poem by Erkin Vokhidov fully reflects the vivid picture of the era, the immortal psychology of the people, the monumental image of the nation. The poet does not forcefully explain the idea he puts forward in his poems to the reader, does not burden the lines with a heavy burden. As much as possible, he presents it lightly through simple words and the actions of the lyrical hero. This article discusses the use of figurative language in the poet's poems.

Keywords: publicist, figurative means, Hero of Uzbekistan, listener, spirit of the nation, poet's soul, images.

ТРАДИЦИЯ И ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Аннотация. Каждое стихотворение Эркина Вокхидова в полной мере отражает яркий пейзаж эпохи, бессмертную психологию народа, монументальный образ нации. Поэт не настойчиво разъясняет читателю идею, которую он выдвигает в своих стихах, и строки не несут тяжелой нагрузки. Несколько это возможно, повествование ведется просто, посредством слов и действий лирического героя. В статье рассматривается использование образного языка в стихотворениях поэта.

Ключевые слова: публицист, изобразительные средства, Герой Узбекистана, слушатель, национальный дух, душа поэта, образы.

XX asr 60-yillarida o‘zbek adabiyoti osmonida Erkin Vohidov yorqin yuduz kabi porlay boshladi. Zamondosh shoirlar zamonani alqab maqtovlar bitayotgan bir davrda shoir insoniy tuyg‘ularni himoya qilarak maydonga chiqdi. Shuningdek, yillar davomida hukmron bo‘lib kelgan aruz vazni XX asrga kelib birmuncha chekinib, o‘z o‘rnini barmoq vazniga bo‘shatib bergan bir vaziyatda shoir aruz vaznining xasta tanasiga o‘z she’rlari ila davo bo‘la boshladi.

Ya’ni “Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy singari mo‘tabar siymolardan keyin mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo‘lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi”. Darhaqiqat, Erkin Vohidov aruziy ohangdorlikka ma’no yukini yuklab, adabiyot ixlosmandlari ichida ildam qadamlarla mag‘rur odim ota bildi. Shoir g‘azallarini o‘qir ekansiz goh muhabbatdan masrur bir oshiqqa, goh insonlar dardi bilan yonib yashovchi bir insonparvarga, goh ilm-fan yutuqlaridan doim xabardor bo‘lgan zakiy ilm kishisiga, gohida esa chuqur falsafiy xayollar sohibi bo‘lgan bir faylasufga duch kelasiz.

Ijodkor nazmiga inja tuyg‘ular nafislik bilan singdirilgan, shu bilan bir qatorda she’rlar xalqona ohangda, sodda tilda bitilgan va g‘oyat o‘qishlidir. Shoirning “Yoshlik devoni”dan o‘rin olgan “Do‘st bilan obod uying” g‘azali so‘zimiz isbotidir:

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham.
Intizor har uy dilovar,
Dilkusholar bazmiga,
Gar oyoq qo‘ysa qabohat
Yig‘lagay ostona ham.
Yaxshi do‘stlar davrasida,
Ochilursan har zamon,
Ko‘rkni shoda ichra topgay
Marvarid durdona ham

Do‘stga muhabbat, uni e’zozlash, do‘st tutish sirlari to‘g‘risida bitilgan ushbu baytlar ohangdorligi, samimiyligi bilan kishini o‘ziga jalb etadi. G‘azal Ramali musammani mahzufvaznida yozilgan bo‘lib, afoyili va taqtisi quyidagicha:

foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun.

Qofiyalanishi:

1. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra murdaf qofiya.
2. Qofiyalar tuzilishiga ko'ra mutlaq qofiya.

Erkin Vohidov she'riyatining o'ziga xosliklaridan biri shundaki, shoir she'riy kompozitsiya yaratishda ritmik pauzadan keng foydalanadi. Ya'ni ritmik pauza barmoq va aruz vaznlari orasidagi bir ko'prik vazifasini o'taydi. Bilasizki, barmoq vazni to'rtliklar ketma ketligidan tashkil topsa, aruz vazni baytlardan (bir bayt ikki misradan) iborat bo'ladi. Ammo ijodkor bir baytni to'rtga bo'ladi, ya'ni har bir misra o'rtasida ritmik pauza qo'llaydi va buni she'r shakliga ham singdiradi. Yana bir g'azalida shoir:

Termular shabnamli yaproq –

Ostidan pinhon uzum,

Lablaringga yetmoq istab

Tong sahar giryon uzum.

– deya tashxisning go'zalligidan foydalanib, takrorlanmas san'at asarini yaratadi.

G'azalda so'zlar shu qadar mohirona terilganki, bir ipga tizilgan injular kabi nafis va jilokor. Bunda har bir bayt o'z ichiga olam-olam ma'no yashiradi. Asarning bosh qahramoni uzum va u jonlantirilgan. Matla'da uzum tong saharda shabnamli yaproq ostidan yorga termuladi. Ya'ni bosh qahramon uzum yor ishqida kuyib yongan bir oshiqdir. G'azal davomida shoir aytmay turib uzumning holati orqali yor vasfini o'quvchiga anglatadi. Ikkinchchi baytda:

Oftob mashshotasi

Tok sochini nurdan tarab,

Zangining bo'yniga osmish

Shodayi marjon uzum.

Pardozchi oftob tokning sochlariqa nur qo'shib taraydi va zangi ya'ni qora tunning bo'yniga uzumdan marjon shodalarini osadi. Shoir deyarli har bir baytda mana shu kabi tashxis va tashbih san'atlaridan unumli foydalanadi. Keyingi baytda:

Toqi ishkom misli osmon,

Har taraf anjum sochur,

Voh ajab bu ne sinoat,

Yer uzum, osmon uzum.

der ekan, ishkomning toqini osmonga benzab, yer-u osmon uzum ekanligi haqida aytadi.

Keyingi har bir baytda voqealar rivojlanib, g'azalning shiddati oshib boraveradi.

Tark etib ko'shkin, savatga
Qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichida
Bo'ldi sargardon uzum.

Aynan to'rtinchi baytdan voqealar rivoji keskin tus ola boshlaydi. Ushbu va bundan keyingi baytlarda tashxis san'ati bilan bir qatorda husni ta'lil san'atidan ham ustalik bilan foydalanilgan. Endi uzum o'z ko'shkini tark etib savatga bosh qo'ygani va yorni izlab bozor uzra sargardon bo'lgani ifodalanadi. So'ngra

Kimki oshiqlikni da'vo
Aylasa shuldur jazo,
Oqibat xum ichra bo'ldi
Mahkumi zindon uzum.

Baytda shoir oshiqlikni da'vo aylaganlarning holidan xalqni ogoh etadi. Oshiqlar mana shunday zindonband etilishlari va har ko'yga tushishlari mumkinligini bildiradi.

Xum ichida necha yil
Xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir
Bir piyola qon uzum.

Aynan ushbu baytni g'azalning kulminatsion nuqtasi deya olamiz. Chunki necha zorliklardan so'ng uzum yor vasliga yetishdi. Bilamizki, lab visol ramzi va uzum may bo'lib yorga yetishdi. Bundan oldingi baytlardagi uzumning uzilib bozorga yetkazilishi, xum ichida saqlanib necha yil xun bo'lishi – qon kabi sharob bo'lishi va uning nihoyat yor labiga ya'ni vasliga yetishi bu aslida bir tabiiy jarayon edi. Ammo shoir husni ta'lil va tashxis san'atlaridan foydalanib g'azalni anchayin injaladi.

Keyingi ikki bayt g'azalda xulosa vazifasini o'taydi.

Bir qadah gulgun sharob
Tutdim senga, bir ho'plading.
Toleyimdan voladurman,
Baxtidan hayron uzum.

Bu baytda oshiq o'zini uzumga qiyoslar ekan ikkisi ham baxtdan mamnun ekanligini bildiradi.

Ey diloram, senga Erkin

Tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil
Qon bo'ldi bu devon – uzum.

Maqta'da shoir o'z she'rini bir piyola mayga mengzaydi va bu may dil xumida necha yil xun bo'lgan uzum, ya'ni devonidan bir qatra ekanligini aytadi. "Uzum" nomli ushbu g'azal ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Qofiyalanishi quyidagicha: o'zak tarkibiga ko'ra murdaf qofiya; tuzilishiga ko'ra muqayyad qofiya.

Erkin Vohidov hech bir she'rini shunchaki yozmaydi, balki ularning har birida hayotning muhim masalalarini, inson bilan bog'liq haqiqatning yangi-yangi qirralarini kashf etadi. Shoir she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga, uning cheksiz kengliklariga muhabbat, ona yurtning yorug' kelajagiga ishonch mavzusi eng muhim mavzu bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Yuqorida keltirilgan ikki g'azal ham fikrimiz isbotidir.

REFERENCES

1. Орипов А. Сўз сехри. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
2. Вохидов Э. Ёшлиқ девони. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. "Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati" mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston: 2020.
5. <https://oriftolib.uz>
6. <https://uz.m.wikipedia.org>
7. <https://arxiv.uz>